

Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Oripova Nodima Xalilovna

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING OILAGA NISBATAN MAJMUAVIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

Alikulova Muxayyo Sherovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

muxayyosherovna@mail.ru tel: +998 91 224 72 28

Annotatsiya: Maqola mazmunida aksiologik yondashuv asosida talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini rivojlantirish oila-ijtimoiy institutiga nisbatan motivatsiyani kuchaytirish, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish, kasbiy qobiliyatni shakllantirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, kasbiy aksiologik yo'nalganlikka, faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va undan numli foydalanishga intilish bilan belgilanishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar va asosiy tushunchalar: yoshlar tarbiyasi, oilaviy hayot, pedagogik yondashuv, aksiologik qadriyat, majmuaviy bilim, oilaviy burch, oilaviy mas'uliyat, oliy majmubiyat.

Аннотация: В содержании статьи говорится о том, что развитие комплексных знаний учащихся по отношению к семье на основе аксиологического подхода определяется усилением мотивации по отношению к семейно-социальному институту, развитием социальной компетентности, формированием профессиональных способностей, стимулированием творческого потенциала, стремлением к профессиональной аксиологической направленности, выявлению и количественному использованию личностных возможностей для достижения успеха в деятельности.

Ключевые слова: и основные понятия: воспитание молодежи, семейная жизнь, педагогический подход, аксиологическая ценность, комплексное знание, семейный долг, семейная ответственность, Оливковая ответственность.

Annotation: On the basis of an axiological approach, the development of students' complex knowledge of the family is determined by strengthening motivation in relation to the family-Social Institute, developing social competence, forming professional abilities, stimulating creative potential, determining personal opportunities for professional axiological orientation, success in activities, and striving to use it numerically.

Keywords: and basic concepts: youth education, family life, pedagogical approach, axiological value, complex knowledge, family duty, family responsibility, Olivier complex.

Ijtimoiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishdir. Ijtimoiy kompetentlik-oila to'g'risida asosli fikr yuritishga imkon beruvchi va unda

samarali harakat qilishga tegishli bilimlar va qobiliyatlarga ega bo'ladi. Oilada tarbiyaviy faoliyatni samarali olib boradigan kompetentli shaxs ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini mukammal egallagan, kasbiy tarbiyaviy faoliyatda samaradorlikka erishishdagi bilimlar va qobiliyatlar yig'indisidir.

Aksiologik yondashuv asosida oila to'g'risidagi kompleks bilimlarini rivojlantirishda:

-mutaxassislik o'quv rejasiga kiritilgan fanlarni aksiologik yondashuv asosida yo'naltirib o'qitishni joriy etish, talabalarni kasbiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash orqali oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini ham rivojlantirib borishga erishish;

-talabalarni o'zi tanlagan yo'nalish bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish bilan birga uning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini ham shakllantirish, talab darajasida malakaga erishishi, olgan bilimlarini ijtimoiy faoliyatni mustaqil boshlash, o'ziga ishonch, tashabbuskor, ko'tarinki ruh, ijodkorlik, ibrat-namuna, o'zini-o'zi nazorat qilish, baholash va rivojlantirish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda nafaqat psixologik-pedagogik, balki faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri bu qadriyatlarni anglagan shaxs bo'lish talabidir, chunki aynan talabalar qadriyatli yo'nalishi bir qator olimlar (V. K. Zaretskiy, Ya. A. Ponomarev, S. Yu. Stepanov, E. A. Yablokova va boshqalar) ning fikricha, uning ijtimoiy kompetensiyasini belgilab beradi. Bunga turli tadbirlar, suhbatlar, treninglar ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Eng so'nggi psixologik-pedagogik lug'atga ko'ra, haqiqiy bilimning muhim fazilatlarini - ularning ongilligi, mazmunlilik, o'ziga xos mazmun bilan to'yinganligi, o'rganilayotgan ob'ektlar, jarayonlar, ularning qonuniyatlari haqida aniq tasavvur va tushunish, nafaqat nomlash, balki bilish qobiliyatidir. (A. P. Astaxov). Hamkorlik o'zaro ta'sir turi sifatida ota-onalar va bolalar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni birgalikdagi faoliyatning umumiy maqsadlari va vazifalari, uni tashkil etish va yuksak ma'naviy qadriyatlar bilan vositachilik qilishni nazarda tutadi (E. A. Grischuk).

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish talabani o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. O'z vijdoni, oilasi va jamoasi oldida hamisha ochiq yuz bilan hisob bera oladi. Ma'naviy-axloqiy va ruhiy poklik shaxsning tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi asosiy mezon vazifasini o'taydi. Shaxslararo munosabatdagi andishasizlik, dag'allik, qo'pollik, bir-birini ko'ra olmaslik, savodsizlik, kibr, baxillik, ichi qoralik, ziqnalik, yolg'onchilik, ig'vo, adovat, g'iybat, manmanlik va hasad kechirib bo'lmaydigan umuminsoniy illat hisoblanib, uni bir gap bilan, ma'naviy-axloqiy nopoklik, deb yuritish mumkin.

Milliy qadriyatlarimiz ulug'vorligining o'ziga xos belgisi sifatida ma'naviy- axloqiy yetuklikka ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Abu Lays Samarqndiyning "Bahrul-ulum"- "Ilmlar ummoni" asarining 93-surasida alloma Fuzayl bin Iyyosning quyidagi fikrlari ifoda etilgan: "Shu ishlarni qilgan odam mutlaqo muruvvat va fazilat sohibi bo'ladi: ota-onasiga yaxshilik qiladigan, qarindoshlarini ziyorat etadigan, din birodarlariga iltifot va hurmat ko'rsatadigan, ahli ayoli, bolalari va xizmatchisi bilan yaxshi muomalada bo'lib, hayot kechiradigan, dinini muhfaza qiladigan, molini shariat buyurgan tarzda halol saqlab, ortig'ini ehson qiladigan, tilini tiygan, ko'zlari uyiga, ibodatga qaratilgan tarzda hayot kechiradigan, behuda ishlar va keraksiz odamlardan uzoqda yurgan" deb ta'riflanadi.

Talabalarining oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy asoslari ana shu safarbarlikda, o'zini bag'ishlay olishda, o'z tashvishi bilan emas, o'z g'alalar dardi, xalq va oilasi dardi bilan yonib yashashida.

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda bir-biri bilan uzviy bogʻlangan ikki jarayon yaxlit holda amalga oshadi.

Bizningcha, bu- birinchidan, talaba maqomiga ega boʻlgan shaxs oʻzining faoliyatida nafaqat kasbiy fikrlash jarayonini, balki barcha insoniylik amallariga qaratilgan yaxshilik, mehr, ezgulik ishlarini ilm – bilim asosida tartibga soladi, unga izchillik, tizimiylik, uygʻunlik ato etadi va maʼnaviy – axloqiy asos beradi. Ikkinchidan, tarbiyachi sifatida oʻzidagi bor fazilatlarni oila amaliyotida qoʻllaydi. Qadriyatli shaxsga xos boʻlgan sifatlarni shakllantiradi. Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda yuqori natijalarga erishishi oila toʻgʻrisidagi bilimlarni egallashga motivatsiyani kuchaytirish, kasbiy qobiliyatni rivojlantirish, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish, ijodiy potensialni ragʻbatlantirish, aksiologik yoʻnalganlikka, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy, kasbiy imkoniyatlarni aniqlash va unumli foydalanishga intilish bilan belgilanadi.

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda taʼlimiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalar qoʻyiladi, jarayon ishtirokchilarining oʻzaro hamkorlikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, talabalar ragʻbatlantiriladi, pedagogik jarayon bilan boshqa tashkiliy jarayonlar orasidagi aloqadorlik taʼminlanadi. Boshqaruvchilik, xulosalar chiqarish imkonini beradi. Qaytor aloqa jarayonini sifatli kechishini taʼminlash lozim boʻlib, uning rivojlanishi va mustahkamlanishiga har qaysi pedagog muhim masala sifatida ustivor ahamiyat berishi zarur. Chunki qaytor aloqa ish samaradorligini belgilovchi mezon vazifasini oʻtaydi.

Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishda ularning oilaviy tarbiyaviy faoliyatga qiziqishi, ehtiyoji, qatʼiy ishonchi va qobiliyati oila tarbiyaviy faoliyatiga yoʻnalganligini tashkil etadi. Uning oilaviy faoliyatga yoʻnalganlik darajasi ijtimoiy tayyorgarlikka va oʻz navbatida ijtimoiy kompetentlikka erishishga olib keladi.

Xulosa shuki talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning eng muhim sharti – oʻquv faoliyati va ijtimoiy muassasalar hamkorligi natejasida, mazkur pedagogik muhitda barcha taʼlim jarayonining muvaffaqiyatini ochib beradigan omillarning kombinatsiyasi yaratiladi. Aynan shuning uchun ham pedagogik faoliyatda talabaning hamkorlikda ishlashi, uning turli xil vazifalar bilan qiziqishi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Talabalarning oilaga nisbatan majmuaviy bilimlarini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirish uchun aniqlangan pedagogik sharoitlar ushbu muammoning amaliy qismi uchun asos sifatida qoʻllanilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» oʻquv qoʻllanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet
2. M. A. Ahmedova, V. S. Xan, D. A. Alimova “Qadriyatlar falsafasi” (Aksiologiya) T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2006-yil 440 bet
3. Matbua Ahmedova “Falsafa” darslik T.: “Oʻzbekiston faylassuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2006-yil 496 bet
4. A. Madvaliyev “Pedagogika ensiklopediyasi” T.: “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320 bet.